



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-IYUL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyul oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 15 173,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,0 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 10,3 %, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning– 12,8 % ga , Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 46,6 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 14,8 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 167,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-iyul

FHI,% da



2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 566,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,0 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-iyul

95,1 %

2022-yil yanvar-iyul

96,0 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,9 % (17,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,1 % (15,1 %) va quyi texnologiyali – 59,4 % (62,2 %)ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,3 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 109,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 11,8 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 150,3 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,1 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 86,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,8 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 118,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 111,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




O‘simlik yog‘i (tozalangan)




Paxta tolasi



Tamaki



Pivo



Yumshoq bug‘doy va spelta uni



2022- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 36,1 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 18,5 % ga pasaygan), 96,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,4 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish, % da |
|--|-----------------------|-----------------------|--|
| Paxta tolasi, ming tonna. | 26,0 | 27,1 | 104,4 |
| Pivo, ming litr | 18747,0 | 17634,0 | 94,1 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna | 102,4 | 96,8 | 94,6 |
| Tozalangan paxta yog'l tonna | 6937 | 8581 | 123,7 |
| Konyak spirti – litr 100 % spirt | 407,1 | 251,0 | 61,7 |
| Tamaki, mln dona | 4358,0 | 5309,7 | 121,8 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna. | 318,5 | 360,0 | 113,1 |
| Paxta tiviti tonna | 2268,3 | 3247,2 | 143,2 |

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 7,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 191,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,8 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 150,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 714,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,2% ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 131,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 354,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 3 874,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 121,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 82,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 693,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 138,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 105,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 393,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 39,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 76,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 144,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 340,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,8 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 244163,8 | 245951,6 | 1787,8 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 3968963 | 4133317 | 164354 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 99,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 23 145,5 | 21 166,3 | -1 979,2 |
| Plastmassa chiqindilari, tonna | 259,6 | 437,1 | 177,5 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 57,7 | 57,5 | - 0,2 |

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 99,7 % ni va O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 8,6 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 009,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 59,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-iyul

38,5%

2022- yil
yanvar-iyul

35,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-iyul

61,5%

2022- yil
yanvar-iyul

64,2%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,2 % (2021- yil yanvar-iyul oylarida 1,5 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 41,0 % ni, Tayloq tumani 10,2 % ni, Urgut tumani 11,2 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni, hamda Jomboy tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (119,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumanida (156,7 %) hamda Tayloq tumanida (168,3 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 41,0 % shuningdek, Tayloq 10,2 %, Urgut 11,2 % ni, Samarqand tumanlarida 8,5 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

5 560,5 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-iyul

6 933,9 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-iyul

9 009,9 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-iyul



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil 96,0%

2021- yil 113,3%

2022 yil 119,6 %

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 45,6 % shuningdek, tumanlardan Urgut 15,5 %, Tayloq 9,6 % ni, hamda Samarqand tumani 4,7 % ni tashkil etdi.

2 701,3 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyul

4 261,7 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-iyul

5 785,7 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyul



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2020- yil

85,1 %

02


2021- yil

111,5 %

03

2022- yil

122,4 %





o'sish sur'ati


mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,4 % ni, Tayloq tumani esa 11,3 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 47,2 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 10,4 % ni, Urgut tumani esa 7,8 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2020- yil

8 795,5 mlrd. so'm

2021 yil

11 026,0 mlrd. so'm

2022- yil

15 173,9 mlrd. so'm



2020- yil

86,4 %

2021- yil

108,3 %

2022- yil

109,3 %

Kattaqo'rg'on sh.

96,6
183,7

Samarqand sh.

109,2 7 160,7

Toyloq

117,2
1 130,5

Urgut

105,6
1 179,1

Nurobod

121,7
217,2

Samarqand

101,5
1 039,7

Paxtachi

114,1
285,8

Pastdarg'om

110,8
551,9

Payariq

95,9
261,2

Narpay

102,6
323,9

Qo'shrabot

101,4
47,4

Kattaqo'rg'on

105,4
330,8

Ishtixon

102,0
290,8

Jomboy

107,2
1 573,3

Bulung'ur

105,8
310,6

Oqdaryo

98,7
287,1

FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 713,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,7 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (96,4 %), Oqdaryo tumanida (95,0 %), Kattaqoʻrgʻon tumanida (81,6 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Narpay tumanida (17,8 %), Paxtachi (28,3 %), Ishtixon (30,4 %), Tayloq (32,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 517 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 787 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,0 %) Samarqand shahriga, 1 231 tasi (14,5 %) Urgut tumaniga, 764 tasi (9,0 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

947dona

2021- yil

1 265 dona

2022- yil

1 106 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

6 410 dona

2021- yil

7 887 dona

2022- yil

8 517 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan